



THE CONCEPT AND LEGAL NATURE OF THE ACTIVITIES OF LAW ENFORCEMENT BODIES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN TO FIGHT AGAINST CORRUPTION (FORMAL-LEGAL ANALYSIS)

Muhammadjon Temurov

Master's student

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: temurov4444@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: law enforcement agencies, formal legal method, state policy, programs, corruption offenses, information; state control, lawmaking, lawmaking, law enforcement, corruption index, anti-corruption standard, cooperation; appeals, legal propaganda, fight against corruption.

Received: 08.03.25

Accepted: 10.03.25

Published: 12.03.25

Abstract: This article provides a formal and legal analysis of the anti-corruption activities of law enforcement agencies in the Republic of Uzbekistan. As a result of this formal and legal analysis, recommendations for improving legislative documents and an author's definition of the concept of anti-corruption activities of law enforcement agencies in the Republic of Uzbekistan were developed, and the specific aspects of this concept were highlighted.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH FAOLIYATI TUSHUNCHASI VA YURIDIK TABIATI (FORMAL-HUQUQIY TAHLIL)

Muhammadjon Temurov

magistratura tингловчиси

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: temurov4444@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: huquqni muhofaza qiluvchi organlar, formal-huquqiy usul, davlat siyosati, dasturlari, korrupsiyaga doir huquqbazarliklar, axborot; davlat nazorati, huquq ijodkorligi, qonun ijodkorligi, huquqni qo'llash, korrupsiya darajasini baholovchi indeks, korrupsiyaga qarshi standart, hamkorlik; murojaatlar, huquqiy targ'ibot, korrupsiyaga qarshi kurashish.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati formal-huquqiy tahlili amalga oshirilib, ushbu formal-huquqiy tahlil natijasida qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan tavsiya hamda O'zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga

qarshi kurashish faoliyati tushunchasiga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan, ushbu tushunchaning o‘ziga xos jihatlari yoritib o’tilgan.

ПОНЯТИЕ И ПРАВОВАЯ ПРИРОДА АНТИКОРРУПЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН (ФОРМАЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ)

Мухаммаджон Темуров

студент магистратуры

Академия правоохранительных органов Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

E-mail: temurov4444@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: правоохранительные органы, формально-юридический метод, государственная политика, программы, коррупционные правонарушения, информация; государственный контроль, законотворчество, правоприменение, индекс коррупции, антикоррупционный стандарт, сотрудничество; обращения, легальная пропаганда, борьба с коррупцией.

Аннотация: В статье проведен формально-правовой анализ антикоррупционной деятельности правоохранительных органов Республики Узбекистан. В результате проведенного формально-правового анализа разработаны рекомендации по совершенствованию законодательных документов, а также авторское определение понятия антикоррупционной деятельности правоохранительных органов Республики Узбекистан, выделены отдельные аспекты данного понятия.

Kirish. Bizga ma’lumki, korrupsiya shunday illatki, u jamiyatni ichidan yemirgan holda demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariiga putur yetkazadi, inson huquqlari va erkinliklarini buzilishiga olib keladi hamda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan salbiy ta’sir ko’rsatadi, jamiyatda ishonchni yo‘qotadi va ijtimoiy nizolarga olib keladi. Korrupsiya bu ishonchga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi va fuqarolar o‘z huquqlarini himoya qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu esa fuqarolarni siyosiy jarayonlardan chetlatadi va demokratik tuzumni zaiflashtiradi. Eng asosiysi, jamiyat hamda insonlar huquqiy ong va madaniyatida huquqiy nigelizm va huquqiy tartibotga bo‘ysunmaslik kabi salbiy illatlarning vujudga kelishi va kengroq taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Shu sababdan, korrupsiyaga qarshi kurash faqat shunga mas’ul davlat organlarining emas, balki jamiyat, shu jumladan, har bir fuqaroning burchidir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “O‘tgan ikki yilda 5 mingga yaqin mansabdor korrupsiyaga doir jinoyatlar bo‘yicha javobgarlikka tortildi. Lekin, ochiq aytish kerak, bu – masalaning sababi bilan emas, oqibati bilan kurashish,...endi amaliy ishlarni kuchaytirish kerak, sun’iy monopoliyaga, yopiq sxemalarga, umuman korrupsiyaga imkon yaratadigan barcha bo‘sqliqlarga barham beriladi”, – deb ta’kidlab o‘tgan edilar. [1] Bundan

tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston–2030” strategiyasining IV “Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” yo‘nalishida 46-maqсад, ya’ni, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish uchun “Transparency International” xalqaro tashkiloti tomonidan e’lon qilinadigan Korrupsiyani qabul qilish indeksida kamida 50 pog‘onaga ko‘tarilish samaradorlik ko‘rsatkichlariga 2030-yilgacha erishish vazifasi qo‘yilgan .[2] Bu esa o‘z-o‘zidan O‘zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati tushunchasini formal-huquqiy tahlil qilish dolzarb masala ekanligini ko‘rsatib beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati tushunchasini formal-huquqiy tahlil qilishga bog‘liq masalalar B.Axrarov, Sh.R.Jalolov, S.A.Boydedayev, A.Burxanov, T.U.Safarov, B.Ismoilov, T.Kenjayev, U.Aloyev, A.Atajanov, Y.Kolenko, S.Mamanov, Z.Qo‘chqarov, N.Salayev, B.Xidoyatov, G.Tulaganova, S.Niyozova, B.Aliyev, A.Muxtarov, T.Norov, F.Maxmudovlar tomonidan, MDH davlatlari miqyosida O.L.Chechko, A.S.Semenov, I.Imanov, R.Y.Jixoreva, Y.I.Gaynudinova, Y.L.Belyayeva, M.A.Molchanovlar tomonidan, xorijiy mamlakatlarda esa Kevin E. Davis, Guillermo Jorge, Maira Rocha Machado (Janubiy Afrika Respublikasi), Haoran Xu (Xitoy), Yanti Siahaan, July Esther, Debora (Indoneziya), Ana Pavlovskaya Daneva, Konstantin Bitrakov (Makedoniya), Joseph Pozsgai-Alvarez (Yaponiya), Jin-Wook Choi (Koreya Respublikasi) tomonidan yetarlicha hamda atroficha o‘rganilgan. Shu bilan birgalikda, ushbu maqolani tayyorlash hamda ilmiy jihatdan tahlil qilishda kuzatish va tahlil, formal-yuridik, normativ-hujjatlar tahlili, holat o‘rganish (case study), teoretik va nazariy tahlil, komparativ (solishtirma) tahlil, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, kompleks tahlil, interdisiplinar yondashuv kabi huquqshunoslik metodlaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Bizga ma’lumki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar – qonuniylik va huquq-tartibotni muhofaza qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashdan iborat bo‘lgan asosiy vazifasini bajaradigan maxsus vakolatli organlardir. [3] Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘zining aniq vazifalariga ega bo‘lgan va kasbiy faoliyat belgisi bo‘yicha muayyan tarzda ajratilgan davlat organlarining mustaqil guruhini tashkil etishlari haqida fikr mavjud. [4] Ya’ni, huquqni muhofaza qiluvchi organlar maxsus huquq va vakolatlarga ega bo‘lgan holda asosiy maqsadi qonuniylik va huquq-tartibotni muhofaza qilish bo‘lgan, shunga mos ravishda vakolatlarga ega bo‘lgan davlat apparatining bir bo‘g‘inini tashkil etuvchi davlat organlarining yig‘indisi hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Sh.A.Saydullayevning fikriga ko'ra, formal-huquqiy usul – huquq normalarini va huquqning ichki tuzilishini o'rganadi, huquqning shakllari va manbalarini tahlil qiladi. [5] Ushbu ta'rifdan kelib chiqqan holda, biz O'zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini tushunchasini formal huquqiy tahlil qilish deganda, ushbu tushunchani milliy qonunchilik tizimi va normativ-huquqiy hujjatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish tushuniladi.

Bizning fikrimizcha, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasining yuridik tabiatini quyidagilarda namoyon bo'ladi:

• O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi [6], O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi [7], O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati [8], O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi [9], O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi [10], O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti [11] korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar sifatida belgilab qo'yilganligi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sun Qonun 7-moddasi birinchi qismida yuqoridagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari sifatida belgilangan; [12]

• korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bilvosita amalga oshiruvchi davlat organlari aniq belgilanmaganligi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sun Qonun 7-moddasi ikkinchi qismida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshirishi belgilangan. Ushbu normada "boshqa davlat organlari" hamda "qonunchilikka muvofiq" tushunchalari mavhum (abstrakt) tushunchadir. Bizga ma'lumki, davlat organi – bu qonuniy asosda tashkil etiladigan, davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayonida muayyan vakolatlarga ega bo'lgan, davlat apparatining mustaqil bo'g'inidir. [13] Davlat organlari hokimiyat vakolatlari taqsimlanishi prinsipiga ko'ra, qonun chiqaruvchi (Oliy Majlis, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari), ijro etuvchi organlar (vazirlik, agentlik, qo'mita, inspeksiya) va sud organlari (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi)ga bo'linadi. "Qonunchilikka muvofiq" tushunchasini sharhlaydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-sun Qonun 7-moddasiga binoan, normativ-huquqiy hujjatlar qonunchilik hujjatlari bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasining qonunchiligini tashkil etadi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlari qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va

qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonunosti hujjatlaridir. [14] Demak, “qonunchilikka muvofiq” – normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq tushunchasini anglatadi. Bu esa yuqorida ko‘rib turganingizdek, juda ham keng va mavhum (abstrakt) ma’noga ega.

Shu sababli, bizning fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sون Qонун 7-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan quyidagi huquqiy normani chiqarib tashlash maqsadga muvofiq: “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.” Chunki, birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagи “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihamining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-860-сон Qонун noaniq va asossiz havolalarning qo‘llanilishi normalarning barqarorligi va huquqiy jihatdan muvofiqligi bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar jumlasiga kiradi. Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-сон Qонун bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihamini, shuningdek ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishning” yagona uslubiyotining 11-bandida havolalar aniq bo‘lishi va muayyan normativ-huquqiy hujjat yoki uning alohida qoidalarini ko‘rsatishi kerak;

• korrupsiyaga qarshi davlat siyosati va dasturlarini ishlab chiqish funksiyalarini bajarishi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-сон Qонун [12] 8¹–13-moddalariga asosan,

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi 1) korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini shakllantiradi, amalga oshiradi; 2) joylarda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hududiy dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti esa korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtiroy etadi;

• korrupsiyaga doir huquqbazarliklarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqish funksiyasini bajarishi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-сон Qонун [12] 9–11, 13-moddalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh

prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta’minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shartsharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

• korrupsiya qarshi kurash sohasida axborot funksiyasini amalga oshirishi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonun [12] 8¹–11-moddalariga asosan,

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi 1) har yili O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida milliy ma’ruza tayyorlaydi hamda uni ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga kiritadi; 2) korrupsiyaga oid jinoyatlarni, birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga va xalqaro obro‘siga putur yetkazadigan korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish natijalarini kompleks tahlil qiladi, uning yakunlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga axborot beradi; 3) korrupsiya holatlariga doir materiallarni qonunchilikda belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga taqdim etadi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil qilishni amalga oshiradi;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘adi hamda tahlil qiladi, milliy xavfsizlik uchun tahdidlarni baholashni amalga oshiradi, tegishli davlat organlariga zarur axborotni taqdim etadi;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi 1) korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘adi hamda tahlil qiladi, tegishli davlat organlariga zarur axborotni taqdim etadi;

• korrupsiyaga oid huquqbazarlik va uning ustidan davlat nazoratini amalga oshirish funksiyasini bajarishi. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonun [12] 8¹–11, 13-moddalariga asosan,

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi korrupsiyaga oid jinoyatlar tufayli jamiyat va davlat manfaatlariga yetkazilgan zararning o‘rni to‘liq qoplanishiga erishilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshiradi;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni va dastlabki tergovni amalga oshiradi;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarining hisobi yuritilishini va tahlil qilinishini ta’minlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti 1) jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish bilan bog‘liq jinoyatlar, iqtisodiy va korrupsiya bilan bog‘liq boshqa jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni va surishtiruvni amalga oshiradi; 2) jinoiy ta’qib etishni tashkil qilish va huquqiy ta’sir ko‘rsatishning boshqa choralarini ko‘rish uchun tegishli davlat organlarini korrupsiyaga oid aniqlangan huquqbuzarliklar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qiladi; 3) jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishning ehtimol tutilgan yo‘llari va mexanizmlarini aniqlash uchun pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarning monitoringini tashkil etadi hamda o‘tkazadi;

- huquq ijodkorligi va qonun ijodkorligida korrupsiyaga qarshi kurashish funksiyasini bajarishi. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonun [12] 8¹, 9, 12-moddalariga asosan,

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalaring korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish tizimi samaradorligini tahlil qiladi, ushbu tizimni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida, shu jumladan qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishda ishtirok etadi;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 1) normativ-huquqiy hujjatlardagi hamda ularning loyihalardagi korrupsiya uchun shart-sharoitlar yaratadigan qoidalar va normalarni aniqlash maqsadida ushbu hujjatlar va loyihalarning tahlilini amalga oshiradi; 2) korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘radi;

- korrupsiya darajasini baholovchi indeks tuzish hamda korrupsiyaga qarshi standartni qo‘llash funksiyasini bajarishi. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonun [12] 8¹-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi 1) fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda korrupsiyaning darajasini, shu jumladan hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimidagi darajasini baholovchi Korrupsiyani idrok etish milliy indeksini tuzishni tashkil etadi; 2) davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish

maqsadida davlat buyurtmachisining ISO: 37001 korrupsiyaga qarshi standartni qo'llashini nazarda tutuvchi talabni belgilaydi;

• korrupsiyaga qarshi hamkorlik funksiyasini bajarishi. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonun [12] 81-13-moddalariga asosan,

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi vazirliklar va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi, davlat organlarining, ommaviy axborot vositalarining, fuqarolik jamiyatni institutlarining va boshqa nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo'yicha samarali hamkorligini tashkil etadi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti 1) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi; 2) korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi;

• huquqni qo'llashda korrupsiyaga qarshi kurashish funksiyasini bajarishi. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonun [12] 8¹-9-moddalariga asosan,

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ijro hokimiyati va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qarorlarida korrupsiya belgilari aniqlangan hollarda ularning ijrosini to'xtatish yoki bekor qilish to'g'risida ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

• murojaatlarga oid korrupsiyaga qarshi kurashish funksiyasini bajarishi. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonun [12] 9-11-moddalariga asosan,

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko'radi;

• korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqiy targ'ibot funksiyasini bajarishi. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonun [12] 9,11,12-moddalariga asosan,

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongi, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 1) aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongi, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatni amalga oshiradi hamda muvofiqlashtiradi; 2) ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta’lim va tarbiyaga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati tushunchasini formal huquqiy tahlil qilish deganda, ushbu tushunchani milliy qonunchilik tizimi va normativ-huquqiy hujjatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati tushunchasi O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan quyidagi faoliyatlarni amalga oshirishda namoyon bo‘ladi:

- korrupsiyaga qarshi davlat siyosati, dasturlari, korrupsiyaga doir huquqbazarliklarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqish;
- axborot;
- korrupsiyaga oid huquqbazarlik va uning ustidan davlat nazorati;
- huquq ijodkorligi, qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llashda korrupsiyaga qarshi kurashish;
- korrupsiya darajasini baholovchi indeks tuzish, korrupsiyaga qarshi standartni qo‘llash;
- korrupsiyaga qarshi hamkorlik;
- murojaatlarga oid korrupsiyaga qarshi kurashish;
- korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqiy targ‘ibot funksiyalarini amalga oshirish faoliyatidir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sen Qonun 7-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan quyidagi huquqiy normani chiqarib tashlash maqsadga muvofiq: “*Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.*”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisiga Murojaatnomasi, 2022-yil 20-dekabr, <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-11-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2023 — 2026-yillarga mo‘ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi, 2023-yil 16-yanvar, <https://lex.uz/docs/-6358976>
3. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2024-y. – 14-bet.
4. Правоохранительные органы Российской Федерации / Под редакцией В.П. Божьева. – М.: Спарк, 2001. – С. 17.
5. Sh.A.Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. – Toshkent: 2024. – 19-bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-son Farmoni, 2020-yil 30-iyun, <https://lex.uz/docs/-4875784>.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Prokuratura to‘g‘risida”gi 257-II-son Qonun, 2001-yil 29-avgust, <https://lex.uz/docs/-106197>.
8. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-471-son Qonun, 2018-yil 5-aprel, <https://lex.uz/acts/-3610935>.
9. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-son Qonun, 2016-yil 16-sentabr, <https://lex.uz/docs/-3027843>.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3666-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risida”gi nizom, 2018-yil 13-aprel, <https://lex.uz/docs/-3681790>.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5446-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti to‘g‘risida” nizom, 2018-yil 23-may, <https://lex.uz/acts/-3743214>.
12. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonun, 2017-yil 3-yanvar, <https://lex.uz/docs/-3088008>.
13. Sh.A.Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. – Toshkent: 2024. – 86-bet.
14. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son Qonun, 2021-yil 20-aprel, <https://lex.uz/docs/-5378966>.